



## YIRIK BITIMLAR TUSHUNCHASI VA UNI HAQIQIY EMAS DEB TOPISH HOLATLARI

Xusanova Muxlisa Xayrullo qizi

Sudyalar oliy maktabi tayanch doktoranti  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15684593>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Iyun 2025 yil  
Ma'qullandi: 14- Iyun 2025 yil  
Nashr qilindi: 17- Iyun 2025 yil

### KEYWORDS

*bitimlarning haqiqiy emasligi, nizoli va o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmagan bitimlar, yirik bitimlar, kafillik shartnomasi.*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada yirik bitimlar tushunchasi, yirik bitimlarni tuzish qoidalari, yirik bitimni tuzishda amal qilinadigan qoidalar, yirik bitimni tuzishda mas'ul organlar, bitimlarni haqiqiy emas deb topish asoslari, bitimni haqiqiy emas deb topishning huquqiy oqibatlari, yirik bitimlarni haqiqiy emas deb topishda aniqlanishi zarur bo'lgan holatlar, sudlar tomonidan bitimni haqiqiy emas deb topish asoslari, shungdek, iqtisodiy sudlar tomonidan yirik bitimlarni haqiqiy emas deb topish holatlari va haqiqiy emasligini isbotlashda zarur bo'lgan holatlar o'z aksini topgan.*

Xo'jalik jamiyatlari tomonidan tuziladigan yirik bitimlar ko'pincha iqtisodiy va huquqiy hayotning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki bunday bitimlar tuzilishi xo'jalik jamiyatining kelgusidagi faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi va uning tuzilish jarayoni, yirik bitimlarni tuzish asoslari bo'lsa huquqiy jihatdan yirik bitimlarning ahamiyatini ochib beradi. Hammamizga ma'lumki, yirik bitimlar jamiyat faoliyati hamda jamiyat mol-mulkini tasarruf etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan bitim hisoblanadi. **Aksiyadorlik jamiyatlarida** yirik bitimlar quyidagi xususiyatlarga ega hisoblanadi, ya'ni jamiyat tomonidan mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, agar boshqa shaxsga berilayotgan mol-mulkning yoki olinayotgan mol-mulkning balans qiymati bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining **o'n besh foizidan** ortig'ini tashkil etsa, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno ekanligi belgilangan.

**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda** bo'lsa, jamiyatning ustavida yirik bitimlarning ancha katta miqdori nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday bitimlarni tuzish to'g'risidagi qaror qabul qilinadigan kundan oldingi oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya hisobotlari ma'lumotlari asosida aniqlangan jamiyat mol-mulki qiymatining **yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo'lgan** mol-mulkni jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan bitim yoki o'zaro bog'liq bir necha bitim yirik bitim deb hisoblanadi. Jamiyatning odatdagi xo'jalik faoliyati jarayonida tuziladigan bitimlar yirik bitimlar deb e'tirof etilmaydi.

Demak, yuqorida ko'rib o'tgan qoidalarimizdan anglashimiz mumkinki, aksiyadorlik jamiyatlarida jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ortig'ini tashkil etadigan, mol-mulkni olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulkni boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim bitimlar yirik bitimlar hisoblansa, mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda yirik bitimlar aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan tuziladigan yirik bitimlardan biroz farq qiladi, ya'ni mas'uliyati cheklangan jamiyatning mol-mulki qiymatining yigirma besh foizidan ortiq qiymatga ega bo'lgan mol-mulkni jamiyatning olishi, tasarrufidan chiqarishi yoki jamiyat bevosita yoxud bilvosita mol-mulkni tasarrufidan chiqarishi ehtimoli bilan bog'liq bo'lgan bitimlar yirik bitimlar hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Xo'jalik jamiyatlari tomonidan yirik bitim tuzishda qat'iy rioya qilinishi zarur tartib mavjud bo'lib, quyida ular haqida so'z yuritamiz. Aksiyadorlik jamiyatlarida yirik bitim tuzish uchun:

1) Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining o'n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror jamiyat kuzatuv kengashining a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a'zolarning ovozi inobatga olinmaydi.

2) Yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha jamiyat kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to'g'risidagi masala kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin.

3) Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

4) Yirik bitim jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi yoki kuzatuv kengashi ushbu bitim bo'yicha qaror qabul qilganidan keyin jamiyatning ijroiya organi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda yirik bitim tuzish to'g'risidagi qaror mol-mulkning qonunchilikka muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o'rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

Yuqoridagi holatlar aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan yirik bitimlarni tuzishda amal qilinishi lozim bo'lgan qoidalar hisoblanadi. Ushbu talablarni buzilgan holda tuzilgan yirik bitim sud qaroriga ko'ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarda yirik bitim tuzishdagi qoidalar quyidagilar hisoblanadi:

1. Yirik bitimni tuzish to'g'risidagi qaror jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

2. Jamiyatning kuzatuv kengashi tuzilgan taqdirda, qiymati jamiyat mol-mulki qiymatining yigirma beshdan to ellik foizigachasini tashkil etadigan yirik bitimlarni tuzish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish jamiyatning ustaviga binoan jamiyat kuzatuv kengashining vakolatiga kiritilishi mumkin. Bunda kuzatuv kengashining aybi bilan yirik bitim tuzilishi natijasida yetkazilgan zarar uchun jamiyatning kuzatuv kengashi umumiy yig'ilish oldida javobgar bo'ladi.

Demak, yuqoridagi talablar mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan yirik bitimlar tuzishda bo'ysuniladigan talablar hisoblanadi. Yuqorida nazarda tutilgan talablar buzilgan holda tuzilgan yirik bitim jamiyatning yoki uning ishtirokchisining da'vosiga binoan sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Yuqorida aksiyadorlik jamiyatlari va mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tomonidan yirik bitimlarni tuzish talablarini ko'rib chiqdik va bilamizki xo'jalik jamiyatlari tomonidan yirik bitim talablariga nomuvofiq tarzda tuzilgan bitimlar sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bu esa fuqarolik huquqida muhim masalalardan biri bo'lib, sudlar va tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan nizolarni hal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Bitimlar fuqarolik huquqining obyektini bo'lganligi sababli bitimlarni haqiqiy emas deb topish va qanday holatlarda bitimlar haqiqiy emas deb topilish holatlari fuqarolik huquqida o'z aksini topgan. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida belgilanishicha quyidagi holatlarda bitimlar haqiqiy emas deb topiladi:

- Bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya etmaslik, ya'ni bitimning qonun talab qiladigan shakliga rioya etmaslik qonunda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan holdagina uning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi;
- Qonunchilikning talablariga muvofiq bo'lmagan bitimning haqiqiy emasligi;
- Muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi;
- Muomala layoqati cheklangan fuqaro tomonidan tuzilgan bitimning haqiqiy emasligi;
- Yuridik shaxs huquqiy layoqatidan tashqariga chiqadigan bitimning haqiqiy emasligi.

Yuqorida keltirib o'tilgan holatlar asosida tuzilgan bitimlar haqiqiy emas deb topiladi. Ushbu holatlar sof fuqarolik holatlari sanalib, yirik bitimlarga nisbatan ham qo'llaniladi. Yirik bitimlarning haqiqiy emaslik holatlariga asos sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

### **1. Bitim mazmunining qonunchilikka zid bo'lishi**

Fuqarolik kodeksining tegishli moddalarini bo'yicha bitimlar davlat va jamiyat manfaatlariga zid bo'lmasligi kerak. Agar yirik bitimning mazmuni yoki maqsadi qonunchilikka, ijtimoiy axloq normalariga qarshi bo'lsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunda quyidagi isbot talab etiladi:

- Bitim shartlarining amaldagi qonunchilikka zid ekanligini ko'rsatish;
- Qonunbuzarlik bitimni amalga oshirish jarayonida sodir etilganini tasdiqlash.

### **2. Bitim taraflarining huquqiy layoqatsizligi**

Bitimning haqiqiyliги uchun uning taraflari qonuniy huquq va majburiyatlarni amalga oshirishga qodir bo'lishi lozim. Agar bitim tuzilgan paytda taraflardan biri layoqatsiz bo'lsa yoki cheklangan huquqiy layoqatga ega bo'lsa, bitim haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunda quyidagi omillar isbotlanadi:

- Layoqatsizlikni tasdiqlovchi hujjatlar (masalan, sud qarori yoki tibbiy xulosa);
- Bitim tuzilgan vaqtga tegishli dalillar.

### **3. Bitimning soxta (nominal) xususiyati**

Ba'zan taraflar real huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarmasdan, faqat tashqi ko'rinish uchun bitim tuzadi. Bu holatda bitimning soxta ekanligini isbotlash kerak bo'ladi. Isbotlash uchun quyidagi dalillar keltiriladi:

- Bitim taraflarining asl niyatini ko'rsatuvchi yozishmalar;
- Bitim bo'yicha hech qanday haqiqiy harakatlar amalga oshirilmaganligini tasdiqlovchi faktlar.

#### 4. Qonuniy shakl va tartib buzilgan holda tuzilgan bitimlar

Yirik bitimlar ko'pincha maxsus shakl va tartibga rioya qilishni talab etadi. Agar bitim belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan bo'lsa, u haqiqiy emas deb topilishi mumkin. Bunda quyidagi dalillar muhim ahamiyatga ega:

- Notarial tasdiqlanmaganligi yoki davlat ro'yxatidan o'tkazilmaganligi;
- Bitim shaklining qonunchilik talablariga mos kelmasligi.

**5. Vakolatlarning noto'g'ri qo'llanilishi:** Bitimni tuzgan shaxs vakolatga ega bo'lmagan yoki vakolatlarni oshirib yuborgan bo'lsa.

Yirik bitimlarni haqiqiy emas deb topish huquqiy jihatdan murakkab jarayon bo'lib, har bir holatda aniq isbot talab etiladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan holatlar sud amaliyotida ko'p uchraydi va ularni to'g'ri baholash bitim taraflari uchun katta ahamiyatga ega. Sud organlari va huquqshunoslar bu jarayonda aniqlik va adolatni ta'minlash uchun yuqorida keltirilgan asosiy isbot talablariga amal qilishlari lozim.

Yuqorida keltirilgan holatlardan tashqari agar shaxsning bitim tuzish vakolatlari shartnoma bilan yoki yuridik shaxs vakolatlari uning ta'sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo'yilganiga nisbatan yonki bitim tuzilayotgan vaziyatdan aniq ko'rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan vakolatlariga nisbatan cheklab qo'yilgan bo'lsa va bitimni tuzish paytida bunday shaxs yoki organ ana shu cheklashlar doirasidan chiqib ketgan bo'lsalar, bitimdagi ikkinchi taraf mazkur cheklashlarni bilgan yoki oldindan bilishi lozim bo'lganligi isbotlangan hollardagina bitim cheklash belgilanishidan manfaatdor bo'lgan shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrdagi 269-son **"Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"**gi Qarorida bitimlarni haqiqiy emas deb topish bilan bog'liq nizolarni hal qilishda iqtisodiy sudlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik [kodeksi](#), O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi [Qonuni](#) va boshqa qonunchilik normalariga amal qilishi lozim ekanligi belgilangan.

Avvalo, iqtisodiy sudlar tomonidan yirik bitimlarni haqiqiy emas deb topishda qaysi asoslarga ko'ra yirik bitimni haqiqiy emas deb topish kelib tushgan, vakolatli shaxs tomonidan berilgan murojaatga asoslanadi va ushbu murojaatda keltirilgan asoslar isbotlanadi. Shu sababli yuqorida keltirilgan sud plenum qarori va boshqa tegishli maxsus va umumiy normalar asosida isbotlash holatlari amalga oshiriladi. Masalan, FK 113-moddasining [birinchi qismiga](#) muvofiq, bitim FKda belgilab qo'yilgan asoslarga ko'ra, sud haqiqiy emas deb topganligi sababli yoki bunday deb topilishidan qat'i nazar, u o'z-o'zidan haqiqiy bo'lmaganligi sababli haqiqiy emas deb hisoblanishi belgilangan, ya'ni xo'jalik jamiyatlari tomonidan tuzilgan bitim Fuqarolik kodeksining 113-moddasiga ko'ra nizoli yoki o'z-o'zidan haqiqiy emas bitim hisoblansa, u haqiqiy emas deb topiladi. Ushbu holatda iqtisodiy sudlar tomonidan quyidagi holatlar isbotlanishi zarur hisoblanadi:

- Qaysi asosga ko'ra bitimni nizoli bitim deb topilishi;

➤ O'z-o'zidan haqiqiy bitim emas deb topilish asoslari.

Ushbu ikkala holat aniqlansa, yirik bitimni haqiqiy emas deb topishning asosi vujudga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2014-yil 28-noyabrdagi 269-son **“Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”**gi Qarori 17.1-bandida korporativ nizolarga oid ishlar doirasidagi bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabni ko'rib chiqishda, affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim hamda yirik bitim tuzish tartibi qoidalari buzilgan taqdirda FKning [126-moddasi](#) qo'llanilishi lozimligi belgilangan. Bilamizki, ushbu moddada bitim tuzish vakolatlarining cheklanishi natijasida vujudga keladigan oqibatlar haqida so'z yuritilgan, ya'ni yuridik shaxsning vakolatlari uning ta'sis hujjatlari bilan ishonchnomada, qonunda belgilab qo'yilganiga nisbatan yoinki bitim tuzilayotgan vaziyatda aniq ko'rinib turgan deb hisoblanishi mumkin bo'lgan vakolatlarga nisbatan cheklab qo'yilgan bo'lsa va bitim tuzilayotgan paytda jamiyatning vakolatli organi ana shu cheklov doirasidan chiqib ketgan bo'lsa, ushbu holatda tuzilgan yirik bitim sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin<sup>1</sup>.

Bitimni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi talabga, qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, umumiy da'vo muddati qo'llaniladi hamda da'vo muddati faqat nizodagi tarafning sud qaror chiqargunicha bergan arizasiga muvofiq qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining 2006-yil 22-dekabrdagi 17-son **“Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida”**gi Qarorining 13-bandida belgilanishicha, FKning [126-moddasida](#) belgilangan vakolat doirasidan chetga chiqib tuzilgan bitimni haqiqiy emas deb topishning asosiy sharti — bitimni haqiqiy emas deb topish haqidagi talab faqat bitimni cheklash belgilanishidan manfaati bor bo'lgan shaxs tomonidan taqdim etilishi hisoblanadi, ya'ni ushbu asoslar bo'yicha sudga da'vo arizasi bilan murojaat qilish faqat qonunga nomuvofiq holda tuzilgan bitimni cheklashdan manfaatdor bo'lgan shaxs tomonidan berilishi lozim, aks holda, manfaatdor bo'lmagan shaxs tomonidan sudga kiritilgan da'vo arizasi qaytarilishi mumkin.

Quyida yirik bitimni haqiqiy emas deb topish bo'yicha da'vogar tomonidan 2021-yil 4-noyabrda imzolangan №40-sonli kafillik shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi da'vo arizasi bo'yicha Boyovut tumanlararo iqtisodiy sudi tomonidan 2023-yil 6-iyulda ko'rilgan 4-1203-2301/615-sonli ish bilan tanishib chiqamiz<sup>2</sup>. Aniqlanishicha, 315 va 35-sonli shartnomalar bo'yicha «XXX» MCHJ majburiyatining ta'minoti sifatida «TTT» MCHJ 2021-yil 4-noyabrdagi №40-sonli kafillik shartnomasi asosida 5.492.400.000 so'm miqdorida jamiyat ta'sisichilarining umumiy yig'ilish qarori qabul qilinmasdan o'z kafilligini bergan.

Lekin «TTT» MCHJning 2019 yil yakuniy hisobotida jamiyat mol-mulki qiymati 2 550 873 800 so'mni tashkil qilishi, 2021-yildagi hisobotda esa mol-mulki qiymati 2 540 446 700 so'mni tashkil qilishi ko'rsatilgan.

Shuningdek «TTT» MCHJning 2018-yil 23-oktyabrda davlat ro'yxatiga olingan ustavining 15.8-bandida ham direktor jamiyat mol-mulkini tasarruf etish va ishtirokchilarning umumiy yig'ilish qarori bo'yicha yirik bitim tuzishi mumkinligi belgilangan.

MCHJ to'g'risidagi qonun talablariga asoslangan holda sud da'vogarning talablarini qondirib, javobgarlar "TTT" va "XXX" MCHJ hamda "BBB" AJ o'rtasida 2021-yil 4-noyabrda imzolangan 40-sonli kafillik shartnomasini haqiqiy emas deb topish to'g'risida hal qiluv qarori chiqaradi.

Ushbu sud amaliyotidan ko'rishimiz mumkinki, avvalo bunday turdagi da'vo bilan sudga faqat manfaatdor shaxslar murojaat qilishi mumkin ekan. Ikkinchidan, bitim bevosita mol-mulkni begonalashtirishga qaratilmagan bo'lsa-da, yuqoridagi kafillik shartnomasi singari begonalashtirish ehtimoli mavjud bitimlar ham yirik bitimlar instituti doirasida o'rganiladi. Bundan tashqari, qonunchilikda nazarda tutilgan tartibdan chetga chiqib tuzilgan yirik bitimlar sud tomonidan bitimning qiymati jamiyatning mol-mulki qiymatiga mutanosibliji jihatidan ko'rib chiqiladi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, yirik bitimlar xo'jalik jamiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega bitim hisoblanib, u jamiyatning butun faoliyatida o'z ta'siriga ega sanaladi, chunki yirik bitimlar jamiyatning faoliyatini kengaytirish, yangi imkoniyatlarga ega bo'lish, moliyaviy resurslarni to'plash va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiladi. Bunday bitimlar yuridik, iqtisodiy va moliyaviy jihatdan puxta tahlil qilinishni va tomonlardan chuqur o'ylangan qarorni talab qiladi. Shu sababli yirik bitimlarni tuzish tartibi alohida qonun normalari bilan belgilab qo'yilgan.

Yirik bitimlarni tuzishning qonuniy talablariga rioya qilmaslik uning sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo'lishini yuqorida ko'rib o'tdik va xo'jalik jamiyatlari tomonidan tuzilgan yirik bitimni haqiqiy emas deb topishni so'rab sudga da'vo arizasi kiritgan da'vogar hamda ishda ishtirok etuvchi shaxslarning da'voni asoslantirish yoki asosli emasligini isbotlashi, shuningdek, sud tomonidan dalillarni aniqlashtirish, to'ldirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarga to'xtalib o'tdik. Ushbu holatlar sudlar uchun ham yirik bitimni tuzgan taraflar uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. O'rganilishlar natijasida chiqarilgan sud hal qiluv qarori da'voni qanoatlantirgan yoki qanoatlantirishsiz qoldirganligiga qarab yirik bitimning amalda bo'lishi hal qilinadi. Agar u haqiqiy emas deb topilsa, fuqarolik qoidalariga ko'ra taraflar ushbu bitim tuzilishi natijasida olingan mol-mulk va boshqa ashyolarni bir-biriga topshirishlari zarur hisoblanadi va haqiqiy emas deb topilgan yirik bitim sudning hal qiluv qarori asosida boshqa yuridik kuchga ega hisoblanmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi <https://lex.uz/mact/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2382409>
3. O'zbekiston Respublikasining "Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-22525>
4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. <https://lex.uz/ru/docs/-3523891>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining "Iqtisodiy sudlar tomonidan bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risidagi fuqarolik qonunchiligi normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-2535141>

6. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumining "Sud amaliyotida bitimlarni tartibga soluvchi qonunchilik normalarini tatbiq qilishda vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-1590543>
7. Bitimni haqiqiy emas deb topish va uning oqibatlarini qo'llash fuqarolik huquqlarini himoya qilish vositasi sifatida. Koryog'diyev Bobur Umidjon o'g'li. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423.
8. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism/ Mualliflar jamoasi –T.: TDYU nashriyoti, 2016. -312 bet.
9. Fuqarolik huquqi: [o'quv qo'llanma]. umumiy qism / R.Dj. Ruziyev, V.R. Topildiyev; mas'ul muharrir B.B. Samarxo'jayev. — T.: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. — 624 b.
10. Iqtisodiy protsessual huquqi {Matn}: o'quv qo'llanma / R.T., Berdiyarov, D.Y., Xabibullayev – T.: TDYU nashriyoti, 2024. – 89-94 b.
11. Iqtisodiy protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y. – 416 bet.
12. Топилдиев В. "Фуқаролик ҳуқуқи". I қисм. "Университет". -Т.: 2014. -288 б
13. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексига шарҳ, 1-жилд (биринчи қисм) Адлия вазирлиги. – Т.: "Vektor-Press", 2010. 342-343-б.

INNOVATIVE  
ACADEMY